

YO'L-TRANSPORT HODISALARINING KRIMINALISTIK TAVSIFLARI

**Rayimov Hakim Nayimovich,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi.**

Respublikamizda yildan-yilga YTHlar soni ortib borayotganligi, bu borada qo'zg'atilgan jinoyat ishlarining qay darajada o'tkazilayotganligini, javobgarlik masalasini belgilashda ishning oqlov hukmiga aylanayotganligi achinarli hol albatta. Bu borada dastlab yo'l-transport hodisalarining sodir etilishida Jinoyat kodeksining 266-moddasi doirasida nimalarga e'tibor qaratish lozimligini ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

Transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast etkazilishiga sabab bo'lsa-jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq sudga oid avtotexnika va transport-trasologiya ekspertizalari kriminalistik bilimlar sohasidan kelib chiqib, boshqa sohalarda qo'llanilayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu turdagi ekspertizalarning vazifalari orasida sud va tergov (tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv) organlari uchun muhim hisoblangani odamni urib yuborgan transport vositasini, uni va jabrlanuvchining kiyim va poyabzalini tadqiqot qilish yo'li bilan, tegishli ma'lumotlarni (sud-tibbiy ekspertiza xulosasida bayon etiladigan tan jarohatlarining xususiyati va lokallashishi) inobatga olgan holda vaziyatga aniqlik kiritish vositasidir.

Ayrim hollarda, yo'llarda piyodani urib voqea sodir bo'lgan joydan yashiringan transport vositasini izlab topish uchun voqea sodir bo'lgan joyda tushib qolgan transport vositasi yoritkich faralari shishasining parchalari, plastmassa va boshqa detallarning bo'laklaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu kabi tadqiqotlarning uslubiyoti ishlab chiqilgan va qo'shimcha kiritishni talab qilmaydi. A.M. Kriviskiyning ta'kidlashicha, "bu ehtiyoj yo'l-transport hodisasida ishtirok etgan transport vositasini, yo'l-transport hodisasi vaqtida transport vositasini boshqargan shaxsni hamda yo'l-transport hodisasi ishtirokchilarining o'zaro holatini aniqlash zarur bo'lganda yuzaga keladi".

Bu fikrlarga qo'shilgan holda, kompleks ekspertizalar tayinlash ehtiyoji, ya'ni yo'l-transport hodisasi mexanizmining alohida bosqichlari va tarkibiy qismlarini aniqlashda ham yuzaga kelishini ta'kidlash lozim, amaliyotda ham piyodani urib voqea sodir bo'lgan joydan ketib qolgan transport vositasini aniqlashda ko'p hollarda sudga

oid avtotexnik va sud tibbiy ekspertlarining hamkorlikdagi ishlari transport vositasini taxminiy rusumini aniqlashda katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlari avtomobil yo'llarida insonlar tomonidan boshqariladigan turli xildagi mexanik va mexanik bo'lmagan transport vositalari bilan boshqa shu turdagi transport vositalari yoki harakatlanayotgan (harakatda bo'lmagan) piyodalar yoxud yo'lovchilar o'rtasidagi murakkab "dinamik tizim"da yuzaga kelishi bilan boshqa turdagi jinoyatlardan keskin farq qiladi. Bunda bir necha yuz yillar avval o'rnatilgan va shu kunga qadar jamiyat rivojiga monand tarzda takomillashtirilib kelinayotgan "qoidalar tizimi" muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz yuqorida ta'kidlagan "dinamik tizim" bilan "qoidalar tizimi" o'rtasida yuzaga keladigan nomuvofiqlik ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishiga sabab bo'ladi. Ushbu jinoyatni yuzaga kelishining murakkabligi uni tergov qilishda, haqiqiy aybdor shaxsni aniqlashda ko'plab qiyinchiliklarga olib keladi. Tergovni har tomonlama, to'la va xolisona olib borishda esa mazkur jinoyatlarning kriminalistik tavsifini chuqur anglab etish, kriminalistika fani bo'yicha ishlab chiqilgan, ilmiy asoslangan uslubiy tavsiyalar juda muhim omil sanaladi.

Zero, B.E. Esimbetova aytib o'tganidek, "Jinoyatlarni tergov qilishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun tergovchi yoki surishtiruvchi eng avvalo, o'zi tergov yoki surishtiruv harakatlarini olib borayotgan jinoyatning kriminalistik tavsifini anglab etishi lozim".

Biroq transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi haqida fikr yuritishdan avval ushbu jinoyatga aloqador ayrim tayanch tushunchalarni mazmun-mohiyatini chuqur anglab etishimiz darkor. Zero, muayyan jinoyat turi haqida aniq fikr-mulohaza yurgizish uchun aynan ushbu jinoyatning mohiyati va mazmunini anglab etish zarur sanaladi.

Jinoyat sodir etish usulini ushbu turdagi jinoyatlarining kriminalistik tavsifi elementlari qatoriga kiritishga qarshi bo'lgan olimlar, o'zlarining bu fikrlarini quyidagilar bilan asoslashga harakat qilishadi:

Birinchidan, yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq jinoyatlarini sodir etish usullari to'g'risida kelib chiqadigan munozaralarning sababi ko'rib chiqilayotgan jinoyat turiga xos bo'lgan aybning ehtiyotsiz shaklidir.

Ikkinchidan, jinoyatni sodir etish usulining (tayyorgarlik, sodir etish, yashirish) to'liq tuzilmasi yo'qligini nazarda tutadi, bu esa ushbu elementni jinoyatlarning kriminalistik tavsifi tarkibiga kiritish zarurligiga shubha tug'diradi. Shunday qilib, jinoyatni sodir etish usulini avtomobil transporti jinoyatlarining kriminalistik tavsifi elementlari tarkibidan chiqarib tashlaydigan pozitsiya tarafdorlari o'z nuqtai nazarini jinoyat sub'ektining uni sodir etishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha harakatlarni amalga oshirmaganligiga asoslaydi.

Qolaversa, jinoyatni sodir etish usuli har qanday jinoyatning kriminalistik tavsifining doimiy va o'zgarmas elementi sanaladi. Binobarin, jinoyatni sodir etish usulini yo'l harakati jinoyatlarining kriminalistik tavsifidan chiqarib tashlash, tergov jarayoni uchun umumiy ahamiyatiga ko'ra, nafaqat maqsadga muvofiq, balki asossiz hamdir. Bu borada N.P.Yablokovni "ehtiyotsizlik bilan jinoyat sodir etish usuli jinoyatchining belgilangan normalar va talablarga mos kelmaydigan harakatlari va harakatsizligining ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan aniqlangan majmuidan iborat" degan fikrlarini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Shu bilan birga, A.A. Bessonov ta'kidlaganidek "qasddan sodir bo'lmagan jinoyatlarda usulning o'ziga xos xususiyati jinoyatchining o'z harakati (harakatsizligi) oqibatlariga beparvo munosabatda bo'lishidadir. Boshqa tadqiqotchilarning nuqtai nazariga ko'ra esa yo'l harakati jinoyatlarini sodir etish usulini yo'l harakati qoidalarini buzish, yo'l-transport hodisasi va sog'lig'iga og'ir zarar etkazish yoki bir yoki bir nechta shaxslarning o'limga olib kelgan harakatlar (harakatsizlik) tizimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yesimbetova B.E. Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarini tergov qilishni takomillashtirish. Yu.f.b.f.dok(phD) dis. – T., 2022. – 38 b.
2. Averyanova T.V., Belkin R.S., Koruxov YU.G., Rossinskaya E.R. Kriminalistika. M.: Izdatelstvo NORMA, 2003. S. 693.
3. Ignatov A.N., Paxomov S.V. Vliyaniye kachestvennoyprostranstvennykh osobennostey mestnosti na vybor i realizatsiyu sposoba soversheniya prestupleniya // Obshchestvo i pravo. 2016. № 3. S. 144
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi va IIV EKBMning hisobotlari.
5. D.SH.Musina. Puti resheniya zadach po ustanovleniyu mexanizma naezda na peshexoda metodami materialovedcheskoy trasologii / Материалы междunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii «Vostok-Zapad: partnerstvo sudebnoy ekspertize. Aktualnyye voprosy teorii i praktiki sudebnoy ekspertizy» (g. Almaty, 6 noyabrya 2014 g.). – Astana, 2014. – 332 s.
6. Yo'l-transport hodisalari ekspertlar nigohida / uz24.uz/society/ygl-transport.